

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

YADGAROVA NAZOKAT SAPARBAYEVNA

**JANUBIY-SHARQIY QORAQALPOG‘ISTONNING EREBINAE KENJA
OILASI TANGACHAQANOTLILARI (FAUNASI, BIOLOGIYASI VA
EKOLOGIYASI)**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Yadgarova Nazokat Saparbayevna

Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning Erebinæ kenja oilasi
tangachaqanotlilari (faunasi, biologiyasi va ekologiyasi)..... 3

Ядгарова Назокат Сапарбаевна

Чешуекрылые подсемейства Erebinæ Юго-восточного
Каракалпакстана (фауна, биология и экология)..... 22

Yadgarova Nazokat Saparbaevna

The moths of subfamily Erebinæ of south-eastern Karakalpakstan (fauna,
biology and ecology)..... 42

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 46

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

YADGAROVA NAZOKAT SAPARBAYEVNA

**JANUBIY-SHARQIY QORAQALPOG‘ISTONNING EREBINAE KENJA
OILASI TANGACHAQANOTLILARI (FAUNASI, BIOLOGIYASI VA
EKOLOGIYASI)**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/B1400 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.


Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Bekchanov Muzaffarbek Xudayberganovich biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponetlar:	Medetov Maxsetbay Japakovich biologiya fanlari doktori, professor Shermatov Malikjon Raxmatjonovich biologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «13» dekabr kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy. Universitet majlislar zali. Tel: (+99861) 223-60-47, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№398-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel: (+99861) 223-59-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «20» noyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «20» noyabrda №8-raqamli reestr bayonnomasi)



M.A.Jumanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, b.f.d., professor

M.K.Begjanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d., dotsent

Ya.I.Ametov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida iqlimning globallashuvi, cho‘llanishning jadallashuvi va antropogen omillarning keng qamrovli salbiy ta‘siri natijasida tabiiy resurslar, jumladan, biologik xilma xillikning keskin kamayishi bilan birga jumladan, hasharotlar dunyosi ham xuddi shunday o‘zgarishlarga uchrashi global muammo hisoblanadi. Ayniqsa, cho‘l va unga yondosh hududlarning aholi tomonidan o‘zlashtirilishi, yaylov sifatida keng foydalanishi, mavjud o‘simlik va hayvonot dunyosiga salbiy ta‘sir etmoqda. Shulardan kelib chiqqan holda, tabiiy va kuchli o‘zgarishtirilgan hududlardagi tangachaqaqanotlilarning zamonaviy taksonomik tarkibini inventarizatsiya qilish, bioekologiyasini o‘rganish, ularning o‘zgargan ekotizimlarga moslashuvchangligini aniqlash hamda kam sonli turlarini muhofaza qilish choralarini takomillashtirish muhim ilmiy amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda Erebinæ kenja oilasi hasharotlar faunasini, ularning populyatsiya zichligini aniqlash, tarqalishi va bioekologik xususiyatlarini o‘rganish hamda global iqlim o‘zgarishlari va antropogen omillarning lepidofaunaga ta‘sirini baholash bo‘yicha ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan tangachaqaqanotlilarning zamonaviy holatini baholash, faunistik tur tarkibini aniqlash, noyob va yo‘qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish bo‘yicha chora tadbirlarni takomillashtirish hamda e‘tiborga molik turlarni chuqur tahlil qilish va ularda kechayotgan morfologik hamda fiziologik o‘zgarishlarni asoslashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda Erebinæ kenja oila tangachaqaqanotlilari tur tarkibini aniqlash, bioekologik xususiyatlari o‘rganish, ularning biologik xilma-xilligini asrab qolish va qishloq xo‘jaligi ekinlari zararini tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada, tangachaqaqanotlilar turkumi oilalarini hududlar kesimida tur tarkibi aniqlandi, ularning bioekologiyasi va zoogeografik xususiyatlari ochib berildi, noyob va kamyob turlari muhofaza ostiga olindi hamda ularni sonini boshqarish bo‘yicha samarali va zamonaviy usullar ishlab chiqilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ 1-ustuvor yo‘nalish sifatida “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash...”, 2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida² «...biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta‘minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrash sur‘atlarini pasaytirish, hayvonlar va o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib borayotgan turlarini qayta tiklash» kabi vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston hududida tarqalgan Erebinæ kenja oilasi faunasi, zamonaviy tur tarkibi,

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 11 iyundagi 484-son qarori.

taksonomiyasi, morfologiyasi, molekulyar-genetik identifikatsiyasi va asosiy turlarining bioekologik xususiyatlarini o'rganish, zararli hamda foydali turlarini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida ishlab chiqilgan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi 1-ilovasida ("Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta'minlash muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 12 foizgacha kengaytirish, hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, biologik xilma-xillikka nisbatan aholining ekologik madaniyati va xabardorligi darajasini oshirish") bo'yicha maqsad va vazifalar belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-sentyabrdagi "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son "Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tangachaqanotlilarning faunasi, tur tarkibi, biologiyasi, ekologiyasi va muhim turlarining tarqalishiga oid ma'lumotlar A.G.Butler (1892), Y.Tikach (1959), Yamamoto M., Sugi S. (1987), M.Fibiger (1990, 2004), M.J.Scoble (1992), N.P.Kristensen (1999, 2004), Beck H. (2000), H.Hacker, L.Ronkay, M.Hreblay I.Iladeninae (2005), Villi de Prins (2006), G.S.Robinson (2009), A.R.Pittaway (2023) va boshqa xorijiy olimlari tomonidan chop etilgan ilmiy nashrlarda e'lon qilingan.

MDH davlatlari hududi miqyosidagi tangachaqanotlilarni keng tadqiq etish bo'yicha olingan natijalari S.N.Alferaki (1875), G.Y.Bey-Biyenko (1955), Yu.L.Shetkin (1965), M.A.Daricheva (1972), I.L.Suxareva (1972), G.X.Shek (1973), V.I.Kuznesov (2001,2004), A.V.Sviridov (2003), A.Y.Matov (2008), V.S.Kononenko (2010), A.P.Burnasheva (2010), P.Y.Gorbunov (2011), A. A. Barbarich (2014), A.Yu.Barma(2015), X.F.Kullieva (2016), K.S.Artoxin va boshqa. (2017), S.Y.Sinev (2017), S.K.Korb (2018) lar tomonidan e'lon qilingan.

O'zbekistonda tangachaqanotlilarni tur tarkibini aniqlash, bioekologik xususiyatlarini o'rganish va zararli turlarini ilmiy asosda sonini boshqarish bo'yicha A.G.Davletshina (1979), B.A.Mo'minov (1979), A.Sh.Hamraev (1992; 2013), F.X.Aripova (1993), D.A.Azimov va boshqalar (1993), A.X.Yusupov (1995), M.Sh.Raximov (1997), X.U.Bekchanov (1998, 2023), M.X.Bekchanov (2019), M.X.Bekchanova (2022), M.R.Shermatov (2024) lar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Biroq, mazkur tadqiqot ishlari O'zbekistonda amalga oshirilgan bo'lsa-da, Janubi-sharqiy Qoraqalpog'istonning Erebiniae kenja oilasi tangachaqanotlilari haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi. Shu sababli tadqiqot hududidagi Erebiniae

kenja oilasiga mansub tangachaqaqnotli hasharotlarning zamonaviy taksonomik holatini aniqlash, bioekologik xususiyatlarini ochib berish, noyob va yo‘qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish chora tadbirlarini ishlab chiqish, zararkunanda turlarning tarqalishi va zarar keltirish xususiyatlarini izohlash katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Abu-Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlash muammolari” mavzusi (2019-2024) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston Erebinæ kenja oilasi tangachaqaqnotlilarining zamonaviy taksonomik tur tarkibini aniqlash, tarqalish areallarini belgilash, biologik va ekologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston Erebinæ kenja oilasi tangachaqaqnotlilar faunasining tur tarkibini aniqlash;

aniqlangan turlarni taksonomik jihatdan tahlil qilish va tavsiflash;

o‘rganilgan hududlar tangachaqaqnotlilarining mavsumiy uchish dinamikasini aniqlash;

tangachaqaqnotli hasharotlarning hayotiy sikli va fenologik xususiyatlarini o‘rganish;

Erebinæ kenja oilasi kapalak turlarining trofik aloqalarini aniqlash va asoslash;

Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston hududi tangachaqaqnotlilarining biotoplar bo‘yicha taqsimlanishini aniqlash;

dominant va kam sonli turlar ulushlarini ekologik tahlil etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning tabiiy va sun‘iy landshaftlari tangachaqaqnotlilari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning tabiiy va sun‘iy landshaftlari Erebinæ kenja oilasi tangachaqaqnotlilari faunasi, biologik va ekologik xususiyatlari hamda tarqalish areallari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida umumentomologik, zoologik, taksonomik, morfologik, faunistik, ekologik va qiyosiy statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Janubiy-Sharqiy Qoraqalpog‘iston hududida Erebinæ kenja oilasi tangachaqaqnotlilarning zamonaviy sistematik holati tahlil qilinib, 8 triba, 11 avlod, 1 ta kenja avlodga mansub 52 tur va 5 ta kenja turi aniqlangan;

ilk bor Erebinæ kenja oilasiga mansub tangachaqaqnotlilarning 4 ta turi (*Anydrophila stuebeli*, *Anydrophila sirdar*, *Gonospileia amudarya*, *Drasteria hyblaeoides*) va 1 ta kenja turi (*Drasteria sculpta sculpta*) O‘zbekiston faunasi uchun aniqlangan.

Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston hududida tangachaqanotlilar ekologik jihatdan katta xilma-xillikka ega bo‘lib, ular: biotoplar bo‘yicha taqsimlanishi 6 ta, fenologik xususiyatlari 6 ta, hayotiy sikli va generatsiyasi bo‘yicha 3 ta, ekologik tinim davri (diapauza) bo‘yicha 3 ta, ozuqa ixtisoslashuviga ko‘ra 7 ta, trofik munosabatiga ko‘ra 3 ta, namlikka munosabati bo‘yicha 6 ta guruhga mansubligi ilmiy asoslangan.

Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning tabiiy va sun‘iy landshaftlarida tangachaqanotlilarning cho‘l, tog‘, to‘qay, ko‘l sohillari, agrotsenoz, ekstrozonal va introzonal biotoplardagi kamyob va yo‘qolib ketish xavfi bo‘lgan yoki endemik turlarni muhofaza choralari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston hududida tarqalgan (Lepidoptera; Erebinæ) kenja oilasiga mansub tangachaqanotlilarining faunistik tahlili va bioekologiyasiga oid ma‘lumotlar asosida respublikada ushbu tur hasharotlarni hisobga olish va monitoringini yuritish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqilgan;

Erebinæ kenja oilasi tangachaqanotlilarining dominant turlarini tabiiy va suniy landshaftlararo tarqalish va rivojlanish darajasi aniqlangan hamda ularning o‘simliklarga keltiradigan zarari baholangan.

Erebinæ kenja oilasining kamyob va muhofazaga muhtoj turlariga doir yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida ular populyatsiyasi holatini saqlab qolish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda entomologiyaning klassik va zamonaviy usullaridan foydalanilganligi, ilmiy farazlar, keng ko‘lamli tahlil natijalarining nazariy ma‘lumotlarga mosligi, ularning turli xalqaro va milliy nashrlarda e‘lon qilinganligi, tangachaqanotlilarning populyatsiya ko‘rsatkichlari, rivojlanish xususiyatlari va tarqalish suratlarini matematik-statistik uslublar asosida tahlil etilganligi (Biostat 2007) va biotoplarda turlarning tarqalishi, o‘xshashliklari Jakkar indeks (uslub) iga asosan statistik tahlil qilinganligi, amaliy natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston turli biotoplarida tarqalgan Erebinæ kenja oilasi tangachaqanotlilari faunasining hozirgi zamonaviy tur tarkibining ilk bor aniqlanganligi, taksonomik tahlil qilinganligi, lepidofaunaning tabiiy va antropogen landshaftlar hamda biotoplar bo‘yicha tarqalish areallari, muhim turlarning biologiyasi, ekologik xususiyatlari, aniqlangan turlarning ekotizimlarda tutgan o‘rni asoslab berilganligi hamda fitofag sifatida o‘simliklar bilan trofik aloqalari tahlil etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston Erebinæ kenja oilasi lepidofaunasining tarkibi va tuzilishi haqidagi ma‘lumotlardan Qoraqalpog‘iston yovvoyi tabiati Davlat kadastrini tuzishda, turli biomonitoring va boshqa ekologik tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi, turli biotoplar bo‘yicha taqsimlanishi, ular kam sonli turlarini muhofaza qilish va asosiy zararli turlariga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning Erebinæ kenja oilasiga mansub tangachaqaqanotlilarning faunasi, biologiyasi va ekologiyasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning tabiiy va sun‘iy landshaftlarda tarqalgan Erebinæ kenja oilasiga mansub tangachaqaqanotlilarning 3 ta triba, 4 ta avlodga mansub 26 nusxa hasharot namunalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya institutining “Zoologiya kolleksiyasi” noyob obyektiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2025-yil 22-aprelidagi 4/1255-991-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu kolleksiya namunalari Respublikamizning turli biotoplarida tarqalgan Erebinæ kenja oilasiga mansub tangachaqaqanotlilarni taksonomik tahlil qilishda, ularni biomorfologik jihatdan o‘rganishda va atlaslar tayyorlashda foydalanish imkonini bergan.

Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston sharoitida tarqalgan Erebinæ kenja oilasiga mansub tangachaqaqanotlilarning kamyon va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarini muhofaza qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 23-aprelidagi 03-03/1-03/3-3904-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tadqiqot hududida aniqlangan Erebinæ kenja oilasiga mansub tangachaqaqanotlilarning: *Anydrophila mirifica*, *Anydrophila simiola*, *Anydrophila stuebeli*, *Anydrophila sirdar*, *Catocala sponsa*, *Catocala nupta*, *Catocala pacta*, *Catocala puerpera*, *Catocala conversa*, *Catocala lesbia*, *Drasteria tenera*, *Drasteria sesquillina*, *Drasteria christophi*, *Drasteria saisani*, *Drasteria sesquistria*, *Drasteria rada*, *Drasteria catocalis*, *Drasteria chinensis*, *Drasteria flexuosa*, *Drasteria hyblaeoides*, *Drasteria indecora*, *Drasteria sinuosa*, *Drasteria picta*, *Catephia alchymista*, *Minucia lunaris*, *Clytie delunaristurlari* va *Drasteria langi langi*, *Drasteria langi obscurata*, *Drasteria herzi herzi* kenja turlarining populyatsiyalar holatini baholash va tur tarkibini saqlab qolish imkonini bergan.

Qoraqalpog‘istonning janubiy-sharqiy qismi agrotsenozlaridagi Erebinæ kenja oilasiga mansub tangachaqaqanotlilarni kompleks tadqiq qilish asosida mazku hududdagi lepidofaunasining shakllanishi, tur tarkibi, ekologik xususiyatlari, biotoplararo tarqalishi, ozuqa munosabatlari bo‘yicha olingan ilmiy ma‘lumotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 16-apreldagi 03/017-1112-son ma‘lumotnomasi). Natijada, donli, g‘o‘za va bog‘ ekinlari agrotsenozida tarqalgan *Gonospileia amudarya*, *Drasteria caucasica*, *Drasteria christophi*, *Acantholipes regularis*, *Catocala sponsa*, *C. fraxini*, *C. nupta*, *C. pacta*, *C. elocata*, *C. conversa*, *C. deducta*, *C. lesbia*, *C. lesbia*, *Catephia alchymista*, *Dysgonia rogenhoferi*, *D. algira*, *Minucia lunaris*, *Clytie terrulenta*, *Pericyma albidentaria* turlarining o‘simliklar bilan trofik va ekologik aloqalarini baholash, madaniy ekinlarni ushbu tur tangachaqaqanotlilarning zararidan ximoya qilish va e‘tiborga molik turlarni chuqur tahlil qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 8 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 8 tasirespublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Erebinae kenja oilasi tangachaqaqnotlilarining o'rganilishiga doir tadqiqotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobi 2 ta bo'limdan iborat bo'lib, unda xorijiy, MDH davlatlari va Markaziy Osiyo hamda respublikamizning olimlari tomonidan turli biotoplarida tarqalgan tangachaqaqnotlilarning tur tarkibi, faunasi, ekologiyasi, biologiyasi, zoogeografik tarqalish qonuniyatlari, hayotiy shakllari, trofik aloqalari borasida hozirgi davrgacha olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari va chop qilingan adabiyotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Janubiy-sharqiy Qoraqalpog'istonning tabiiy iqlim sharoiti, geografik xususiyatlari, tadqiqot materiallari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot olib borilgan hududning joylashuvi va geografiyasi, iqlimi, tuprog'i va relyefi, o'simliklari va hayvonot dunyosi, tadqiqot materiallari va uslublari to'g'risida ma'lumotlar bayon qilingan.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishi uchun materiallar yig'ish 2019-2024-yillarda amalga oshirildi. Materiallar Janubiy-sharqiy Qoraqalpog'istonga tegishli To'rtko'l, Ellikqal'a, Beruniy, Amudaryo va Qorao'zak tumanlarining tabiiy va sun'iy landshaftlarida jami 21 nuqtada olib borildi hamda 3157 nusxa turlar yig'ildi.

Yig'ilgan Erebinae kenja oilasi tangachaqaqnotlilarini yig'ish, ularning tur tarkibini aniqlash va kolleksiya namunalari tayyorlash hamda identifikatsiya qilishdategishli usullarda olib borildi Ya. Tikach (1959), A.K. Zagulyaev (1986), (Ye.A. Dunaev (1997), K.Lampert (2003), V. S. Kononenko (2003), Z.Klyuchko

(2006), V.T. Kozak (2010), V.B.Golub (2013), S.K. Korb (2018), M.I.Shapovalov (2021).

Statistik tahlillar Sturgess (1882-1958) va Jakkar uslubiga asoslangan holda amalga oshirilgan. Turlarning uchish dinamikasi, trofik aloqalari, jinsiy nisbatlari, namlikka bo‘lgan munosabatlari maxsus metodlar asosida amalga oshirildi (B.I.Shvanvich (1949), Yu.Odum (1986), M.I.Falkovich (1989), M.J.Scoble (1992)).

Dissertatsiyaning “Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning Erebinæ kenja oilasi tangachaqaqanotlilarining tur tarkibi va taksonomik tahlili” deb nomlangan uchinchi bobida Erebinæ kenja oilasiga tavsif, tur tarkibi, zamonaviy taksonomik tuzilishi va tahlili natijalari keltirilgan. Jumladan, tadqiqot natijasida yig‘ilgan har bir turning taksonomik o‘rni, ilmiy sinonim nomlari, aniqlangan joyi va muddati, uchish faolligi, trofik aloqalari, tarqalishi, zoogeografiyasi va ekologik muhitiga ko‘ra guruhlanishi to‘g‘risida ma’lumotlar batafsil keltirilgan.

Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning Erebinæ kenja oilasi tangachaqaqanotlilar faunasi tur tarkibi ilk bor aniqlandi. Ushbu hududning taksonomik tuzilmasini zamonaviy sistematikaga asosan 8 ta triba, 11 ta avlodga 1 ta kenja avlod mansub 52 ta tur 5 ta kenja tur tarqalganligi birinchi bor qayd qilindi. Ophiusini tribasiga 3 ta (28%), Pandesmini 2 (18%) ta, Acantholipini 1 ta (9%), Anydrophilini 1 ta (9%), Catocalini 1 ta (9%), Euclidiini 1 ta (9%), Melipotini 1 ta (9%), Pericymini 1 ta (9%) avlod kirishi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval


Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston Erebinæ oilasi tribalarining taksonomik tahlili

№	Tribalar	Avlodlar soni	%	Kenja avlod	%	Turlar va kenja turlar soni	%
1	Acantholipini	1	9			1	1,75
2	Anydrophilini	1	9			5	8,8
3	Catocalini	1	9			15	26,3
4	Euclidiini	1	9			3	5,3
5	Melipotini	1	9			21	36,8
6	Ophiusini	3	28			4	7
7	Pandesmini	2	18	1	100	7	12,3
8	Pericymini	1	9	-		1	1,75
Jami	8	11	100	1	100	57	100

Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning taksonomik tahliliga ko‘ra jami 8 ta tribadan 2 ta dominant triba aniqlandi. Ulardan Catocalini tribasi 15 ta turni, Melipotini tribasi esa 16 tur bilan birga 5 ta kenja turni o‘z ichiga oladi. Ushbu ikki oila vakillari 31 tur va 5 ta kenja turi umumiy faunaning ko‘p (63%) qismini o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, Erebinæ kenja oilasi turlarning miqdori va soniga ko‘ra

Drasteria avlodi tarkibida 16 tur va 5 ta kenja turni (37 %) o‘z tarkibiga oladi, *Catocala* avlodi 15 tur (26 %), *Clytie* avlodi 6 turni (10 %), *Anydrophila* avlodi 5 tur (9%), *Gonospileia* avlodi 3 tur (5 %), *Dysgonia* avlodida esa 2 tur (3 %), qolgan *Catephia*, *Minucia*, *Pandesma*, *Pericyma*, *Acantholipes* avlodlarida esa faqat bittadan tur (2 %) aniqlanganligi ma’lum bo‘ldi (1-rasm).




1-rasm. Erebinæ kenja oilasi tangachaqanotlilarining avlodlar kesimidagi hissi

Aniqlangan turlar orasidan *Anydrophilini* tribasiga *Anydrophila* avlodiga mansub 2 ta tur *Anydrophila stuebeli* va *A. sirdar*, *Euclidin*tribasi *Gonospileia* avlodigamansub 1 ta tur *Gonospileia amudarya* va *Melipotini* tribasi *Drasteria* avlodiga mansub 1 ta tur *D.hyblaeoides* hamda shu avlodga mansub 1 ta kenja tur *D.sculpta sculpta* O‘zbekistonda ilk bor uchraganligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning Erebinæ kenja oilasi tangachaqanotlilarining bioekologik xususiyatlari va ahamiyati**” deb nomlangan to‘rtinchi bobi o‘n bitta bo‘limdan iborat bo‘lib, Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonda tarqalgan Erebinæ kenja oilasi tangachaqanotlilarining uchrash miqdori, biotoplar bo‘yicha tarqalishi, fenologiyasi, generatsiyasi, tangachaqanotlilarning diapauzasi, ozuqa o‘simliklarining hayotiy shakllari, trofik (ozuqa) aloqalari, populyatsiyasining jins nisbatlari, namlikka munosabatlari, ekosistemadagi ahamiyati va ularning himoyaga muhtoj turlari hamda boshqa mualliflar tadqiqot natijalari bilan qiyosiy tahlillari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Bobning “Erebinæ kenja oilasi tangachaqanotlilariga yorug‘lik ekologik omil sifatida” deb nomlangan birinchi bo‘limida tadqiqotlar davomida tangachaqanotlilarining yorug‘lik manbalariga nisbatan harakat dinamikasiga bag‘ishlangan. Shunga ko‘ra, yillar kesimida qorong‘ida yorug‘likka uchish dinamikasi o‘rganilib (G.N.Gornostaev (1984), V.B.Chernishev (1996)) 2019- 662 ta, 2020-553 ta, 2021-616 ta, 2022-486 ta, 2023-392 ta, 2024-448 tani tashkil qilishi aniqlangan (2-rasm).




2-rasm. Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston tangachaqanotlilarining yorug‘lik manbalariga nisbatan harakat dinamikasi (2019-2024-yillar kesimida).

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida jami ushlangan nusxalar soni 3157 tani tashkil qildi. Bu nusxalarni asosiy qismi 3 ta triba, ya’ni Catocalini 512, Ophiusini 574, Euclidiini 486 tani tashkil qildi.


Bobning “Tangachaqanotlilarining biotoplar bo‘yicha tarqalishi” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida, turli xil biotoplar va tadqiqot maskanlarida uchragan turlar son nisbatlari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kuzatilgan tangachaqanotlilar turlarining biotoplar bo‘yicha taqsimlanishiga ko‘ra, eng yuqori tur xilma-xilligi turang‘izor (30 tur) va barxanlik cho‘l (27 tur) biotoplariga to‘g‘ri keldi. Aksincha, toshloqli va efemerli tog‘lar (1 tur), shuningdek, qamishli va qo‘g‘ali ko‘llarda (2 tur) tur soni eng past darajada qayd etildi. Bundan tashqari, Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonda asosan 21 ta hududdan materiallar yig‘ilgan bo‘lib, eng ko‘p material yig‘ilgan hududlarga: Sarimoy 27 tur, Amudaryo 25 tur va to‘liq to‘qay biotopida 23 tur, boshqa hududlarda turlar soni nisbatan kam xususan, Uch-uchak hududida 22 ta tur, Paxtaobod 16 ta, Janbasqal’a 16 ta, To‘rtko‘l 15 ta, Beruniy 15 ta, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati 15 ta, Ellikqal’a 14 ta, Oqqamish-2 13 ta, Nukus massivi 12 ta, Aqchako‘l 12 ta, Shayx Jalil bobo 11 ta, Nazarxon 8 ta, Oqqamish-1 4 ta, Miskin 3 ta, Qamishli ko‘l 2 ta, Sho‘r ko‘l 2, Sulton Uvays tog‘ tizmalari 1 ta va Qaratau hududida 1 ta tur uchrashi aniqlangan (3-rasm).



3-rasm. Landshaft va biotoplarda Erebininae kenja oilasi turlarining taqsimlanishi

Janubiy-sharqiy Qoraqalpog'istonning Erebininae kenja oilasiga mansub tangachaqanotlilarning faunasi bilan birga ularning biotopik tarqalishi va unga bog'liq qonuniyatlari o'rganildi. Turlarning tarqalishi va uchrash chastotasiga qarab, stenotop, oligotop va evritop turlar aniqlanib, ular orasidagi ekologik bog'liqliklari tahlil qilindi (4-rasm).



4-rasm. Turlarning tarqalishi va uchrash chastotasiga qarab taqsimlanishi

Janubiy-sharqiy Qoraqalpog'iston hududidagi turli biotoplarda uchraydigan tangachaqanotlilar faunasining o'xshashlik darajasi Jakkar koeffitsiyenti yordamida baholandi (2-jadval).


Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istontarqalgan turlarning biotoplardagi o‘xshashligi (Jakkar indeksi asosida).

Biotoplar	Cho‘l №1	To‘qay №2	Tog‘ №3	Ko‘l №4	Antropogen №5	Ekstrozonal va introzonal №6
Cho‘l №1	1	0.20	0.36	0.075	0.11	0.21
To‘qay №2	0.20	1	0.15	0.26	0.55	0.5
Tog‘ №3	0.36	0.15	1	0.14	0.06	0.27
Ko‘l №4	0.075	0.26	0.14	1	0.56	0.16
Antropogen №5	0.11	0.55	0.06	0.56	1	0.44
Ekstrozonal va intrazonal №6	0.21	0.5	0.27	0.16	0.44	1

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, cho‘l biotopi (biotop № 1) va tog‘ biotopi (biotop № 3) hududlari o‘rtasida turlar o‘xshashligi $K_j = 0.36$ kuzatilgan. Bu esa o‘z navbatida turlar uchun iqlim sharoitlari va ozuqalarining har ikkala biotoplarda ham mavjud ekanligini yoki yaqinligini bildiradi. Eng kam o‘xshashlik ko‘l (biotop №4) va cho‘l biotopi (biotop №1) hududlari o‘rtasida esa turlar o‘xshashligi $K_j = 0.075$ kuzatilgan. Har ikkala biotopda ekologik muhitning bir-biridan keskin farq qilishi natijasida turlar o‘xshashligi past ko‘rsatgichda qayd qilindi (2-jadval).

Turli biotoplarda yig‘ilgan turlarning tarqalish darajalari tahliliga ko‘ra, turlar soni $S = 57$ ta, yig‘ilgan umumiy namunalar soni $N = 3157$ bo‘lib, Sturgess formulasi bo‘yicha hisoblangank = 9 ballar soni uchun quyidagi o‘lchov shkalasi hosil bo‘lgan.


Yig‘ilgan va aniqlangan turlar xar xil nisbatdagi tarqalishga ega bo‘lib, quyidagicha taqsimlandi: juda kam turlar 1 ta (1,75 %), kamyob turlar 3 ta (5,26 %), kam turlar 2 ta (3,51 %), odatiy turlar 39 ta (68,42 %), ko‘p uchraydigan turlar 3 ta (5,26 %), juda ko‘p uchragan turlar esa 9 ta (15,80 %) (5-rasm).



5-rasm. Erebiniae kenja oila tangachaqanotlilarining tarqalish darajalari


Shunday qilib, turlar tarqalish darajasining logarifmik taqsimlanishi tangachaqanotlilar jamoalariga xos bo‘lib, bu turlar ekologiyasi bir yoki bir necha omillarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mavsumiylik, ob - havo va biotopik sharoitlar turlarning tuzilishiga ta’sir etuvchi omillar bo‘lishi mumkin. Erebinæ tangachaqanotlilarining gistogrammasidan ko‘rinib turibdiki: IV-daraja (odatiy uchraydigan turlar) - eng yuqori ulush (68,42 %) ni, VI-IX-daraja (juda ko‘puchraydigan turlar) - 15,80 %. Qolgan toifalar nisbatan past ulushda. Bu logarifmik ketma-ketlik modeliga mos an’anaviy tarqalish ekanini yanada ravshan ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur bobning “Erebinæ kenja oilasi tangachaqanotlilar turlarining fenologiyasi” deb nomlangan uchinchi bo‘limida Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istontangachaqanotlilarining fenologik jihati va rivojlanish sikllari bo‘yicha taqsimlanishini ekologik nuqtai nazardan tahliliy natijalari keltirilgan, shunga asosan 6 ta fenologik guruhga ajratildi. Bahorgi turlar 1 (2 %), yozgi turlar 7(12 %), qishki-kuzgi turlar 2 (4 %), bahorgi-yozgi tur 15 (26 %), bahorgi-kuzgi 23 (40 %), yozgi–kuzgi turlar 9 (16 %) tashkil qilishi qayd qilindi (6-rasm).




6-rasm. Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston tangachaqanotlilarining fasllar bo‘yicha fenologik taqsimlanishi

Bobning “Erebinæ kenja oilasi avlodlarining generatsiyasi bo‘yicha ekologik klassifikatsiyasi” bo‘limida tangachaqanotlilarining nasl (generatsiya) berishi tahlil natijalari keltirilgan. Shunga ko‘ra, aniqlangan turlarni nasl berishi bo‘yicha 3 ta ya’ni: monovoltin, bivoltin va polivoltin guruhlarga taqsimlangan (7-rasm).



7-rasm. Erebinæ kenja oilasi turlarining nasl (generatsiya) berish taqsimoti

Bobning “Erebinae kenja oilasi tangachaqanotlilarining diapauzasi” bo‘limida turlarning noqulay tashqi sharoitlari natijasida har xil ko‘rinishdagi diapauza holatiga o‘tishi natijalari keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, turlarning eng keng tarqalgan qishki diapauza shakli tuxum shaklida bo‘lib, 35 turni, g‘umbak shaklida 18 turni, imago shaklida 4 turni tashkil qilishi qayd qilindi (8-rasm).



8-rasm. Tangachaqanotlilarining diapauzasi

Bobning “Erebinae kenja oilasi turlarining hayotiy shakllari” bo‘limida Erebinae kenja oilasi lepidofaunasining trofik aloqalariga ko‘ra o‘simliklarning hayotiy shakllari bilan oziqlanishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. Shunga ko‘ra, Acantholipini tribasidan xortobiont 1 tur, Anydrophilini tribasi vakillari tamnobiontlar 5 tur, Catocalini tribasi vakillaridan dendrobiontlar 14, dendrotamnobiontlar 1 tur, Euclidiini tribasining vakillari дендрохортобионт 1 tur, xortobiontlar 2 tur, Melipotini tribasi turlaridan dendrobiontlar 5 tur, tamnobiontlar 4 tur, tamnoxamebiont 3 tur, xortobiontlar 9 tur, Ophiusini tribasi turlari dendrobiont 3 tur, dendrotomnoxortobiont 1 tur, Pandesmini tribasiga turlari tamnobiont 6 tur, xortobiontlar 1 tur, Pericymini tribasiga mansub turi xortobiont 1 turni tashkil qilishi qayd qilingan (3-jadval).

3-jadval


Turlarning hayotiy shakllari bo‘yicha taqsimlanishi (I.G. Serebryakov).

T/r	Triba	Avlodlar soni	Turlar soni	Dendrobiont	Dendrotamnobiont	Dendrotamno xortobiont	Dentroxortobiont	Tamnobiont	Tamnoxamebiont	Xortobiont
1	Acantholipini	1	1							1
2	Anydrophilini	1	5					5		
3	Catocalini	1	15	14	1					
4	Euclidiini	1	3				1			2

5	Melipotini	1	21	5				4	3	9
6	Ophiusini	3	4	3		1				
7	Pandesmini	2	7					6		1
8	Pericymini	1	1							1
	Jami	11	52	22	1	1	1	15	3	14

Bobning “Erebinae kenja oilasi ekosistemadagi trofik (ozuqa) aloqalari” bo‘limida tangachaqanotlilarning qurtlarini ozuqaga ixtisosligiga ko‘ra guruhlanishi, ozuqa o‘simligi boyligi bo‘yicha fon hosil qilishiga qarab taqsimlanishi va ozuqa o‘simligining oilalari qayd qilingan.

Bizning tadqiqot ishimizdatangachaqanotlilar qurtlarining ozuqaga ixtisoslashuviga ko‘ra uchta uchta monofag, oligofag va polifag guruhlari ajratildi. Natijalariga ko‘ra, Erebinae kenja oilasi tangachaqanotlilarining ozuqaga ixtisoslashuvi tahlil ozuqasi o‘rganilgan 57 ta tur va kenja turlar bo‘yicha yetakchi o‘rinni monofaglar, shu jumladan 39 tur (68%), oligofaglar 13 turni (23%) va polifaglar 5 turni (9%) tashkil qildi. Dominant tangachaqanotlilar Melipotini (21 tur) va Catocalini tribasiga mansub (15 tur) turlar tashkil qildi (9-rasm).




9-rasm. Turlarning tribalar kesimida ozuqaga ixtisoslashuvi tahlili

Shuningdek, 57 ta tur va kenja turlarning trofik munosabatlariga ko‘ra, Acantholipini, Anydrophilini va Pericyma tribalari turlari 2 tadan oila o‘simliklarida oziqlanadi (Fabaceae, Polygonaceae). Catocalini tribasi turlari 6 ta oila o‘simliklarida oziqlanadi (Salicaceae, Fagaceae, Rosaceae, Ulmaceae, Oleaceae, Sapindaceae). Euclidiini tribasi turlari 2 ta oila o‘simliklarida oziqlanadi (Fabaceae, Salicaceae). Melipotini tribasi turlari 8 ta oila o‘simliklarida oziqlanadi (Polygonaceae, Salicaceae, Betulaceae, Fagaceae, Elaeagnaceae, Asteraceae, Fabaceae, Amaranthaceae). Ophiusini tribalari turlari 4 ta oila o‘simliklarida oziqlanadi (Rosaceae, Tamaricaceae, Salicaceae, Fabaceae, Euphorbiaceae). Pandesmini tribalari turlari 3 ta oila (Chenopodiaceae, Fabaceae, Tamaricaceae) o‘simliklarida oziqlanishi aniqlandi.

Bobning “Erebinae kenja oilasi tangachaqanotlilari populyatsiyasining jins nisbati” deb nomlanuvchi bo‘limida jinsiy struktura ya‘ni populyatsiyada erkak (♂) va urg‘ochi (♀) turlar nisbatlari yoritilgan. Jumladan, olingan natijalar asosida

tangachaqanotlilar turlarida quyidagicha: jami erkak turlar soni- 1448, jami urg'ochi turlar soni esa 1709 tani tashkil qildi (10-rasm).




10-rasm. Erkak va urg'ochi imagolar sonining taqsimoti (M.J.Scoble).

Tur darajasida ayrim guruhlarda erkaklar soni ko'proq bo'lsa-da, umumiy populyatsiyada urg'ochilar soni ustun. Bu esa shunga ishora qilishi mumkin: ayrim turlarda erkaklar ko'proq uchraydi, ammo urg'ochilar soni evolyutsion yoki ekologik jihatdan populyatsiyani barqaror saqlashda muhimroq. Jami Erebinæ kenja oilasiga mansub tangachaqanotlilardan 32 ta turda erkaklar soni urg'ochilarnikidan ko'p, 22 ta turda urg'ochilar soni ko'p, 3 ta turda erkak va urg'ochilar soni teng ekanligi aniqlandi.

Bobning "Namlik ekologik omil sifatida" deb nomlangan bo'lib, ushbu bo'limda Erebinæ kenja oilasiga mansub hasharotlarning namlikka munosabati bo'yicha guruhlarga ajratilgan va cho'l va yarim cho'l hududlarida yashovchi tangachaqanotlilarning namlik yetishmovchiligiga moslashish turlari qayd qilingan.


Entomologik tadqiqotlarda hasharotlar namlik munosabatiga ko'ra quyidagi 6 ta ekologik guruhlarga bo'lindi: gigrofillar, mezofillar, kserofillar, gigro-mezofill, gigro-kserofil hamda aralash guruh (gigro-mezo-kserofil)lar (11-rasm).



11-rasm. Erebinæ kenja oilasi turlarining namlikka munosabatiga ko'ra taqsimlanishi (B.I.Shvanvich (1949)).

Bobning “Erebinae kenja oilasi tangachaqanotlilarining ekosistemadagi ahamiyati va ularning himoyaga muhtoj turlari” deb nomlangan bo‘limida Erebinae kenja oilasiga mansub turlarning ekosistemadagi ahamiyati, juda kam uchraydigan va kamyob turlarning O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilishi lozimligi yoritilgan. Shuningdek, Erebinae qurtlari va tangachaqanotlilarini asosan ko‘rshapalaklar, kalamushlar, qushlar, ilonlar, kaltakesaklar, qurbaqalar, va entomofag hasharotlar uchun muhim ozuqa manbai hisoblanadi. Ular ekosistemadagi oziq-ovqat zanjirining ajralmas qismi bo‘lib, ko‘plab jonzotlarning hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Erebinae tangachaqanotlilari atrof-muhit o‘zgarishlariga sezgir bo‘lib, ularning soni va tarqalishi ekosistemaning sog‘lomligini baholashda indikator ko‘rsatkich sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari tangachaqanotlilar qurtlari o‘simliklarga zarar keltiradi, bu esa hosildorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bobning “Boshqa mualliflar ma’lumotlari bilan qiyosiy tahlili” nomli bo‘limida Xorazm vohasi, O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy hududida va Farg‘ona vodiysi hududlarida olib borilgan tadqiqot natijalari taqqoslangan.



12-rasm. Turlarning qiyosiy tahlili

Olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinganda M.Sh.Rahimov (1997) tomonidan Xorazm vohasi antropogen landshaftlarida Erebinae kenja oilasiga mansub 4 tur, X.O‘.Bekchanov (2023) tomonidan O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy landshaftlarida 34 tur, M.R.Shermatov (2024) Farg‘ona vodiysi agroekotizimlarida 6 tur uchrashi o‘rganilgan. Shunga ko‘ra, Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning Erebinae kenja oilasiga mansub tangachaqanotlilarning M.Sh.Rahimov (1997) materiallarining o‘xshashligi 2 turni, X.O‘.Bekchanov (2023) aniqlagan turlar bilan o‘xshashlik 34 turni va M.R.Shermatov (2024) aniqlagan turlar bilan o‘xshashlik 3 turni, tashkil qilishi qayd qilingan (12-rasm).

XULOSALAR

“Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning Erebinæ kenja oilasi tangachaqanotlilari (faunasi, biologiyasi va ekologiyasi)” mavzusidagi falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘iston sharoitida Erebinæ kenja oilasiga mansub tangachaqanotlilarning 8 ta triba, 11 ta avlod va 1 ta kenja avlodga tegishli 52 tur va 5 ta kenja turdan iborat taksonomik tarkibi aniqlandi.

2. Erebinæ kenja oilasi avlodlarining tarkibi tahlili natijasiga ko‘ra *Drasteria* avlodida 16 tur va 5 ta kenja tur (37 %), *Catocalada* 15 tur (26 %), *Clytieda* 6 tur (10 %), *Anydrophilada* 5 tur (9%), *Gonospileiada* 3 tur (5 %), *Dysgoniada* esa 2 tur (3 %), qolgan *Catephia*, *Minucia*, *Pandesma*, *Pericyma*, *Acantholipes* avlodlarida esa faqat bittadan tur (2 %) kirishi ma‘lum bo‘ldi.

3. O‘zbekiston faunasi uchun ilk bora 4 tur va 1 ta kenja tur, ya‘ni *Anydrophilini* tribasiga *Anydrophila* avlodiga mansub 2 ta tur *Anydrophila stuebeli* va *Anydrophila sirdar*, *Euclidiini* tribasi *Gonospileia* avlodiga mansub 1 ta tur *Gonospileia amudarya* va *Melipotini* tribasiga *Drasteria* avlodiga mansub 1 ta tur *Drasteria hyblaeoides* hamda shu avlodga mansub 1 ta kenja tur *D.sculpta sculpta* qayd etildi.

4. Tangachaqanotlilarning yillar kesimida qorong‘ida yorug‘likka uchish dinamikasi o‘rganilib ularning keyingi yillarda turlar va nusxalar sonini pasayishi kuzatildi.

5. Tangachaqanotlilarning hayotiy sikli va avlod berishi bo‘yicha monovoltin turlar 31 tani, bivoltin turlar 22 tani, polivoltin turlar 4 tani tashkil qildi. Imagolarini uchish dinamikasini kuzatish natijasiga ko‘ra 6 ta fenologik guruhi ajratildi. Qishlab qolish diapauzasiga qarab turlar 3 guruhga ajratildi: eng keng tarqalgan qishki diapauza shakli tuxum shaklida bo‘lib 35 turni, g‘umbak shaklida 13 turni, imago shaklida 4 turni, qishlash diapauzasi tashkil qildi. Tangachaqanotlilar namlikka munosabati bo‘yicha 6 ta ekologik guruhlariga taqsimlanildi.

6. Erebinæ kenja oilasi turlarini ozuqa ixtisoslashuviga ko‘ra 3 guruhga ajratildi (monofaglar 39 tur, oligofaglar 13 tur, va polifaglar 5 tur). Hayotiy shakliga ko‘ra 7 ta (dendrobiont, tamnobiont, xortobiont, dendrotamnobiont, dendrotamnoxortobiont, dendroxortobiont, tamnoxamebiont) guruhga ajratildi.

7. Janubiy-sharqiy Qoraqalpog‘istonning 6 ta landshaftiga mansub 21 ta biotop tangachaqanotlilari to‘liq o‘rganildi va tahlil qilindi. Tahlil natijasiga ko‘ra boshqa biotoplarga nisbatan Sarimoy, Amudaryo va Tollyq to‘qay bitoplarida turlarning xilma-xilligi yuqori ekanligi aniqlandi.

8. O‘rganilayotgan hudud boyicha dominant turlar 9 tani, subdominant turlar 3 tani, odatiy turlar 39 tani kam uchraydigan turlar 2 tani, juda kam turlar 1 tani, kamyob turlar esa 3 tani tashkil qildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.В.20.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ1
УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

ЯДГАРОВА НАЗОКАТ САПАРБАЕВНА

**ЧЕШУЕКРЫЛЫЕ ПОДСЕМЕЙСТВА EREBINAЕ ЮГО-
ВОСТОЧНОГО КАРАКАЛПАКСТАНА (ФАУНА, БИОЛОГИЯ И
ЭКОЛОГИЯ)**

03.00.06 – Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.2.PhD/B1400.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете.


Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и в Информационно-образовательном портале «Ziynet». (<http://www.ziynet.uz>).

Научный руководитель:	Бекчанов Музаффарбек Худайберганович доктор философии по биологическим наукам, доцент
Официальные оппоненты:	Медетов Махсетбай Жапакович доктор биологических наук, профессор Шерматов Маликжон Рахматжонович доктор биологических наук, доцент
Ведущая организация:	Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «13» декабря 2025 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.20.04 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Зал заседаний Каракалпакского государственного университета. Тел.: (+99861) 223-60-47, факс (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за №398). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (+99861) 223-59-49.

Автореферат диссертации разослан «20» ноября 2025 года.
(реестр протокола рассылки №8 от «20» ноября 2025 года)



М.А.Жуманов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор

М.К.Бегжанов
Учсний секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.ф.б.н., доцент

Я.И.Аметов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в результате глобального изменения климата, ускорения опустынивания и широкомасштабного негативного воздействия антропогенных факторов в мировом масштабе, наряду с резким сокращением природных ресурсов, в том числе биологического разнообразия, мир насекомых также подвергается подобным изменениям, что является глобальной проблемой. В частности, освоение пустынь и прилегающих к ним территорий населением, их широкое использование в качестве пастбищ оказывает негативное влияние на существующий растительный и животный мир. Исходя из этого, инвентаризация современного таксономического состава чешуекрылых на естественных и сильно измененных территориях, изучение их биоэкологии, определение их адаптивности к изменившимся экосистемам, а также совершенствование мер по охране малочисленных видов имеет важное научно-практическое значение.

В мире проводится множество научных исследований по определению фауны насекомых подсемейства *Erebinae*, плотности их популяций, изучению их распространения и биоэкологических особенностей, а также оценке влияния глобальных климатических изменений и антропогенных факторов на лепидофауну. В связи с этим особое внимание уделяется оценке современного состояния чешуекрылых, определению фаунистического видового состава, совершенствованию мер по охране редких и исчезающих видов, а также углубленному анализу примечательных видов и обоснованию происходящих в них морфологических и физиологических изменений.

В нашей республике особое внимание уделяется определению видового состава бабочек подсемейства *Erebinae*, изучению их биоэкологических особенностей, сохранению биоразнообразия и изучению вредоносности сельскохозяйственных культур. В связи с этим определен видовой состав семейств отряда *Erebinae* по регионам, выявлены их биоэкологические и зоогеографические особенности, взяты под охрану уникальные и редкие виды, разрабатываются эффективные и современные методы управления их численностью.

В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы¹ по дальнейшему развитию Республики Узбекистан в качестве первого приоритетного направления определены "Экология и охрана окружающей среды, улучшение экологической ситуации в городах и районах....", в Стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годов² поставлены такие задачи, как "Сохранение биологического разнообразия и обеспечение его устойчивого

¹Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

²Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 июня 2019 года № 484 "Об утверждении Стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годов".

использования, развитие и расширение охраняемых природных территорий, снижение темпов деградации природных экологических систем, восстановление редких и исчезающих видов животных и растений". Исходя из этих задач, изучение фауны подсемейства Erebinae, распространенного на территории Юго-Восточного Каракалпакстана, его современного видового состава, таксономии, морфологии, молекулярно-генетической идентификации и биоэкологических особенностей основных видов, а также выявление вредных и полезных видов имеет важное научное и практическое значение.

Приложение стратегии «Узбекистан – 2030», разработанное в ходе реализации Новой стратегии развития Узбекистана, устанавливает цели и задачи: («Обеспечение надежного сохранения биологического разнообразия, расширение площади особо охраняемых природных территорий до 12 процентов, усиление контроля за незаконным использованием объектов животного и растительного мира, повышение уровня экологической культуры и осведомленности населения в вопросах биоразнообразия»). Данная диссертационная исследовательская работа в определенной мере способствует реализации задач, определенных в Законе Республики Узбекистан «Об охране и использовании животного мира» от 19 сентября 2016 года, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 914 от 7 ноября 2018 года «О ведении государственного учета объектов животного и растительного мира, учета объемов их использования и государственного кадастра» и других нормативно-правовых актах, регулирующих данную деятельность.

